

## ICHAK KASALLIKLARI XALQ TABOBATI DAVOLASH

**Tursunov Ismoiljon Iqboljon o'g'li**

*Andijon Davlat Tibbiyot Instituti akademik litsey kimyo fani o'qituvchisi*

+998930698838

*ismoiljontursunov10@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolda ichak kasalliklari xalq tabobati davolash, xalq tabobati va uning rivojlanishi haqida qisqacha foydali ma'lumotlar, o'n ikki barmoqli ichak yarasini bir necha turini tasniflashligi, Uy sharoitida tayyoralandigan xalqona vositalar o'n ikki barmoqli ichak yarasining xuruji davrida ham bemorning ahvolini sezilarli darajada yengillashtirishligi haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit So'zlar:** *jamoa, oila, Gippokrat, patologiya, prognoz.*

### KIRISH

Xalq tabobati odatda jamoa, oila va shaxslar yig'ilguncha og'zaki ravishda uzatilgan. Ma'lum bir madaniyat doirasida mahalliy tibbiyot bilimlari elementlari ko'pchilik tomonidan ma'lum bo'lishi mumkin yoki shoman, doya kabi tabibning o'ziga xos rolida qo'llanilishi ko'zda tutiladi. Uchta omil tabibning rolini qonuniylashtiradi - o'z e'tiqodlari, harakatlarining muvaffaqiyati va jamiyatning e'tiqodlari.

### ADABIYOTLAR VA METODOLOGIYA

Xalq tabobati tomonidan to'plangan ma'lumotlar qadimgi dunyoning eng yirik shifokorlari — Sushruta, Gippokrat va Galen, A. Sels, keyinchalik — Ibn Sino asarlaridan olingan. Rossiya xalqlari xalq tabobatining xususiyatlarini XVIII asr oxirida ilmiy ekspeditsiya ishtirokchilari P. S. Pallas, V. F. Zuev, I. Gmelin, S. P. Krasheninnikov, I. I. Lepexin va boshqalar asarlaridan o'rGANISHGAN. Rus xalqlari XIX asrda rus klinik tibbiyotining asoschilari M. Ya. Mudrov, N. I. Pirogov, S. P. Botkin, G. A. Zaxarin va boshqalar xalq tabobatida qo'llaniladigan ba'zi texnika va dori-darmonlarni o'z amaliyotlarida qo'llashgan.

XVIII asrning oxirigacha xalq tabobati umumiyligi tibbiyotdan ajralib turmagan. Bazel shifokori Teodora Tsvingera ning „Sicherer und geschwinder Arzt, oder vollständiges Arznenbuch“ (1684) kitobida bu haqida aniq ko'rsatilgan. U asosan Gippokrat va boshqa qadimgi shifokorlarning „tana sharbatlarining nisbati“ haqidagi ko'rsatmalariga asoslanib faoliyat olib borgan. „Xalq tabobati“ atamasi dastlab XIX asrning birinchi yarmida nemis olimlarining tibbiy asarlarida paydo bo'lgan.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Ichak kasalliklari haqida ko'p eshitganmiz: 12 barmoqli ichak yarasi, Ingichka ichak kasalligi, Yo'g'on ichak kasalligi, To'g'ri ichak va anus kasalligi va boshqalar.

O'n ikki barmoqli ichak yarasi (lot. *ulcus duodeni*) — surunkali kasalliklar guruhiга kiruvchi va a'zoning shilliq qavatida yarali nuqson paydo bo'lishi bilan tavsiflanadigan patologiya. Kasallik davomiyligi remissiya davrlari, alomatlarining deyarli yo'qligi va xuruj

olish (retsidiv) davri bilan boruvchi to'lqinsimon kechishga ega. Ko'p hollarda 12 barmoqli ichak yarasi oshqozon yarasi bilan bir vaqtning o'zida tashxislanadi — bu holda umumiy patologiya haqida gapiriladi.

Tibbiyotda, o'n ikki barmoqli ichak yarasini bir necha turini tasniflash qabul qilingan. Ular barchasi o'z xususiyatlariga ega va har birini davolash uchun individual yondashuv talab qilinadi.

### **O'N IKKI BARMOQLI ICHAK YARASI RIVOJLANISHI SABABLARI**

Ushbu kasallik rivojlanishining asosiy sababi Helicobacter pylori — oshqozon yarasi rivojlanishiga sababchi bo'ladigan patogenlar hisoblanadi. Oshqozon yarasi uzoq vaqt davom etganda bakteriyalar albatta o'n ikki barmoqli ichak shilliq qavatiga ham tushadi va u yerda yara hosil qiladi. Ushbu bakteriyalar oshqozon yarasi bo'lgan 87% bemorlarda, 12 b. ichak yarasi bo'lgan 95% bemorlarda aniqlanadi. 12 barmoqli ichak yarasining paydo bo'lismiga sabab bo'ladigan boshqa ko'plab omillar ham mavjud.

### **XALQ TABOBATI VOSITALARI**

Uy sharoitida tayyoralandigan xalqona vositalar o'n ikki barmoqli ichak yarasining xuruji davrida ham bemorning ahvolini sezilarli darajada yengillashtirdi. Biroq, ular panatseya emasligini, ular kasallikni remissiya bosqichiga o'tkazish yoki to'liq davolashining kafolati bo'la olmasligini tushunish kerak.

Xalq tabobati vositalariga quyidagilar kiradi:

1. Asal. Uni har kuni shunchaki o'zini iste'mol qilish ham foyda beradi. Ammo asal va zaytun moyini teng miqdorda (masalan, 500 ml'dan) aralashtirib, muzlatgichda saqlash yaxshiroqdir. Ovqatlanishdan yarim soat oldin ushbu vositadan bir osh qoshiq iste'mol qilish kerak. Davolanish davomiyligi 14 kun, keyin 10 kunlik tanaffus olinadi va kurs qayta takrorlanishi mumkin.

2. Zubturum urug'i. Ularni qaynoq suvda (100 ml suvga 10 g zubturum urug'i) qaynatib, yarim soat tindirish kerak. Vositani ovqatlanishdan bir soat oldin bir osh qoshiqdan qabul qilish kerak — kuniga bunday qabullar maksimum 3 marta bo'lishi mumkin.

3. Propolis. Ushbu mahsulotdan 150 gramm olib, iloji boricha yaxshilab maydalash kerak va ustidan 1 kg eritilgan sariyog' quyish kerak. Propolis to'liq erimagunicha ikkalasini yaxshilab aralashtirish talab etiladi (agar kerak bo'lsa, suv hammomida bajarish mumkin). Tayyor vosita kuniga uch marta ovqatdan oldin 1 choy qoshiqdan qabul qilinadi. Davolanish davomiyligi 30 kun, keyin 3 hafta davomida tanaffus qilish kerak. Ushbu dorivor vosita sovutgichda saqlanishi lozim.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'n ikki barmoqli ichak yarasining rivojlanishi prognozi ijobjiy bo'ladi — uni nafaqat uzoq muddatli remissiya, balki chandiqlanish bosqichiga ham olib borish mumkin. Agar ushbu kasallikda bemorga tibbiy yordam ko'rsatilmagan bo'lsa, bu jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://mymedic.uz/kasalliklar/gastroenterologiya/on-ikki-barmoqli-ichak-yarasi/>
2. Liang, Qiaoyi; Yao, Xiaotian; Tang, Senwei; Zhang, Jingwan; Yau, Tung On; Li, Xiaoxing; Tang, Ceen-Ming; Kang, Wei; Lung, Raymond W.M. (2014-yil dekabr). „Integrative Identification of Epstein–Barr Virus–Associated Mutations and Epigenetic Alterations in Gastric Cancer“. *Gastroenterology (englizcha)*. 147-jild, № 6. 1350–1362.e4-bet.
3. Алексей Куденко. „От народной китайской медицины — к Нобелевской премии“. ИноСМИ (10-oktyabr 2015-yil). 6-yanvar 2019-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 5-yanvar 2019-yil.
4. Traditional medicines continue to thrive globally“. CNN. 30-may 2016-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 25-aprel 2016-yil.
5. Кодиров, Комилjon, Тохиржон Тўхтасинов, and Хумора Зайнололобидинова. "СУБАДДИТИВНЫЕ МЕРЫ В ПРОСТРАНСТВАХ ИЗМЕРИМЫХ ФУНКЦИЙ." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.6 (2023): 451-455.
6. Кодиров, Комилjon, Тохиржон Тўхтасинов, and Хумора Зайнололобидинова. "СУБАДДИТИВНЫЕ МЕРЫ В ПРОСТРАНСТВАХ ИЗМЕРИМЫХ ФУНКЦИЙ." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.6 (2023): 451-455.
7. Кодиров, Комилjon, Тохиржон Тўхтасинов, and Хумора Зайнололобидинова. "СУБАДДИТИВНЫЕ МЕРЫ В ПРОСТРАНСТВАХ ИЗМЕРИМЫХ ФУНКЦИЙ." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.6 (2023): 451-455.
8. Кодиров, Комилjon, Тохиржон Тўхтасинов, and Хумора Зайнололобидинова. "СУБАДДИТИВНЫЕ МЕРЫ В ПРОСТРАНСТВАХ ИЗМЕРИМЫХ ФУНКЦИЙ." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.6 (2023): 451-455.
9. Кодиров, Комилjon, Тохиржон Тўхтасинов, and Хумора Зайнололобидинова. "СУБАДДИТИВНЫЕ МЕРЫ В ПРОСТРАНСТВАХ ИЗМЕРИМЫХ ФУНКЦИЙ." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.6 (2023): 451-455.